

Hamid Olimjon
Zulfiya



*Akki qalb
tuq'yon*

[A large, stylized, black wavy line, possibly a signature or a decorative flourish.]



HAMID OLIMJON



ZULFIYA

IKKI QALB TUG'YONI

She'rlar



**Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2018**

O'K 821.512.133-1(082)

K 84(5O')6


Z-91

Hamid Olimjon, Zulfiya.

91 Ikki qalb tug'yoni [Matn]: she'rlar/Hamid Olimjon, Zulfiya.
— T.: Cho'lpon nomidagi NMU, 2018. — 96-b.
ISBN 978-9943-5086-1-3

Osmanni oy va quyoshsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Darvoqe, o'zbek adabiyotini ham Hamid Olimjon va Zulfiyasiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Hamid Olimjon o'zbek she'riyatining quyoshi bo'lsa, Zulfiya nazmimizning oyi edi. Oy va quyosh bir-biriga talpinib bitgan ash'orlari orqali tunimiz va kunimizni ezgulik yog'dulari bilan yoritib, bizni yashash va kurashga, hayotni sevishga chorlab turadi. She'riyat olamiga har bir ijodkor o'z qo'shig'i bilan kirib keladi. Hamid Olimjon va Zulfiya she'riyatga Baxt va Vafo qo'shig'i bilan kirdi. O'zbek xalqining hassos shoiri Hamid Olimjon va ardoqli shoirasi Zulfiyaning tutash umri tillarda doston bo'ldi. Bu sevgi va ijod qissasi bo'lgan ikki dil tug'yonidan qo'shingizdagagi ushbu to'plam orqali bahramand bo'lishingiz mumkin.

UO'K 821.512.133-1(082)
KBK 84(5O')6



N 978-9943-5086-1-3

© H. Olimjon, Zulfiya, 2018
© Cho'lpon nomidagi NMU, 2018
(Bolalar adabiyoti nashriyoti)

O'RIK GULLAGANDA

Terazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar
Tongda aytdi hayot otini,
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli, deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi, deya so'rayman.

Yuzlarimni silab-siypalab,
Baxting bor, deb esadi yellar.
Etgan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so'ylar roz,
Men yurganda bog'larga to'lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha oł,
Bunda tole har narsadan mo'l,
To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrida hech ko'rmay yig'lab
O'tganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig'lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Terazamning oldida bir tup.
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

1937

ENG GULLAGAN YOSHLIK CHOG'TIMDA...

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar joninga payvast,
Men sevgining bo'yi bilan mast.
Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo'qoldim.

Quchoq-quchoq gullar terganim
Va keltirib senga bergenim
Kechagiday hamon esimda,
Har soniya, har on esimda.

Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.
Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.

1937

BOLALIK

Dunyo ekan...
Chamanzorlar kechib,
Oshib tog'lardan,
Quyoshdan nur ichib,
Qum, o'tloqlardan
O'ynab... kulib...
Armon bilan
O'tar ekansan.

Bola edik.
Tanlar — olov,
Qalb — qaynoq,
Ko'zlar — o'tkir,
Dillar — sof,
Erkin-erkin o'ynardik...
Hayot bilan
Qaynar edi
Kuy, qishloq.
Bir yonda tog',
Bir yonda bog'...
Suv sochardi...
Gul ochardi...
Keng ko'chalar...

Uzun yo'llar...
Porlar edi
Sham – chiroq...
Suv oqardi,
Qo'ynida
Ko'krak kerib,
Baliq kabi
Sho'ng'ib yotardik...
Qizlar o'tsa,
Orqasidan
Olma otardik.

Nurli, oydin kechalar,
Porlar edi ko'chalar,
To'planardik,
«Yashinmachoq» o'ynardik.
So'ng charchardik,
Chumchuq kabi
Chirqillashni
Tashlab biz,
Rohat-rohat
Qo'zi kabi uxlardik.
Kunlar o'tdi.
Shahar bizni
Olov ko'zli,
Temir tanli
Ot bilan
Ko'kragiga chaqirdi.
Uzoq ketdik,
Yo'lda tog'lar,
Bir tegirmon toshidek
Chir aylanib qoldilar.

U, kishnadi,
 Mag'rurlarcha baqirdi.
 Yosh ko'ngillar,
 Poyoni yo'q hislarni,
 Yo'lga sepib,
 So'ng zavqlarga to'ldilar.

Yillar uchib ketdilar.
 Ko'p bahorlar
 Qanot yozib,
 Tilaklarga yetdilar.
 Biz shaharning kurash
 marshin o'rgandik.

Faqat ba'zan yo'llarda
 Telba suvlar oqalar.
 Bizga qarab:

«Kel-kel» deylar,
 Quyosh emib boqalar.
 Yoshlik esga tushadi.
 Ko'z oldimdan
 Bolaligim
 Quvlashib o'tishadi,
 Xayollarga tolaman...
 Oh... unlarni eslاب, eslاب,
 Bir nafas jim qolaman.
 Lekin, yana
 Shovqinqnlarga
 Quloch yozib kiraman.
 To'lqinlarda
 O'ynab, qaynab,
 Chappor urib kulaman.

SIYOB

1

Ko'kdan
Har kun oltin olov to'kildi.
Jimjit har tun
G'avg'o bilan so'kildi.
Mudragan,
Uxlagan har yer jonlandi.
Qish ketdi,
Qor bitdi,
Har novda
Oq, pushti
Chechaklar taqib,
Har ko'ngil
Unlarga zavq bilan boqib,
Baxmal ko'yaklar-la
Ko'klam boshlandi.

2

Biz shod, quvnoq,
Siyob sari oqamiz,
Har tomonga
Sevinch bilan boqamiz.
Bir yonda:
Yoyilgan
Qo'ylar, qo'zilar,
Kezadi,
O'tlarni ezadi,
Boqqanda
Unlarga
Xayol cho'zilar...

Bir yonda:
 Yotadi
 Vayrona mozor,
 Bag'rida
 Yuradi
 Bir gavda:
 Istaydi
 Kechmishdek vafoli bir yor,
 Yastanib yotadi
 Vayrona mozor.
 Biz bir to'lqin —
 Siyob sari oqamiz.
 Yosh dillarga
 Oltin chechak taqamiz.

3

Siyob
 Go'yo
 To'lgan, kulgan yuzlardek,
 Ko'tarilar har nafas,
 O'ynar,
 Istamas qafas,
 To'lqinlar o'tishadi,
 Sezgir ziyrak ko'zlardek,
 Baland-pastga tushadi.
 Ag'darilib:
 Kashta tikib,
 Tez-tez o'tib ketadi.
 Kim biladi,
 Balki kunda,
 Balki tunda,
 Kim qaylarga yetadi.

Qancha yo'lni
Yengib, so'ngra
Kim, qaylarga singadi.
Kichik ko'prik...
Ustunlarga
Suylar o'zin uradi.
Oppoqqina
Qo'ng'iroqli,
Kumush chechak bo'ladi.
Ko'prik kichik...
Lekin tetik...
Og'irlikni sezmaydi.
Birni — unga,
Birni — bunga,
Har tarafga yo'llaydi.

Zanjir kabi
Ulanishib
Yigit-qizlar o'talar.
Epchillari
Tez shoshilib,
Chopibgina ketalar.
Ba'zilari
Qo'rqa-qo'rqa,
So'ng sohilga yetalar.
Ko'lkalari
Ba'zan titrab
O'ynaydi.
Uzun sochlar
Majnuntoldek
Egilmakdan to'y maydi...
Bukun sayil,

O'ynashalar
Yosh qizlar,
Yosh yigitlar,
Go'yoki sel,
Ham toshalar,
Uzoq qochgan sukulalar.

Sayil
Lekin,
Qurbon-da yo'q,
G'am — uzoq,
Yangi, o'tli
Yo'llar uchun
Qo'yolmaydi
Din tuzoq.
Har dil — xursand,
Har yuz — kulgan.
Sajda qilmay tangriga.
Anglagan ul,
Bosh egmaydi
Uning xoin amriga.
Esadi yel,
Yuksaklarda
Hilpiraydi ro'mollar
Egadi bel,
Tubanlarda
Suvga serob
Yosh tollar.
Dov balandda,
Ulug' go'rda
Bir payg'ambar cho'zilgan.
Yangi nasl

Uni ortiq
Nafrat bilan ko'radi,
Sham yoqmaydi,
Pul — oqmaydi,
Eshiklari buzilgan.
Poygohida
Oq sallali
Qora burgut turadi,
Yuzlaridan tuproq yog'ib
O'zni har yon tashlaydi:
— Yohuv!.. — deydi,
— Tangrisiga
— Yolvormoqqa boshlaydi.

Pastda
Hamma xursand,
O'yin... kulgi... rohat...
Soz... musiqa... chaladi...
Har hisni-da
Qitiqlaydi,
Har dildan sir oladi.

Keng bir davra
O'rtasida,
Bir go'zal qiz o'ynaydi.
Ko'zni suzib,
Qoshni kerib,
Tinch turgani qo'ymaydi,
Mayda-mayda
Qadam tashlab,
qo'shiqlar-la
qaynaydi.

Bukun sayil,
 Yosh yurakda
 Qolmagandir
 Qayg'u hech.
 Ey, qaydasiz:
 Uyg'un,
 Ilhom,
 Ketmaymizni,
 Bo'ldi kech!

1929

BAXTLAR VODIYSI

(Farg'ona she'rlaridan)

Ko'm-ko'k.

Ko'm-ko'k.

Ko'm-ko'k...

Ko'klam quyoshidan

ko'kargan qirlar,

Po'lat yag'rirlarni

ko'targan yerlar
ko'm-ko'k!..

Salqin saharlarda

uyqudan turgan,

Buloq suvlariga

yuzini yuvgan,

Marmar havolarning

qo'yniga cho'mgan,

Zilol bo'shliqlarga

keng qulqoq qo'ygan,

Mustaqillik

ishqi bilan

yongan dalalar

ko'm-ko'k...

Ufqimizning hirslarini

o'ziga tortgan,

Yelkasiga tarix bilmas

g'alaba ortgan.

Ulug' yo'lda toliqmasdan

tez ketayotgan

baxmal qirlar,

keng bo'shliqlar,

Paxtazor yerlar

ko'm-ko'k...

Tong pallasi havas bilan

dalaga oqqan,

Muzday sovuq shabbodalar

taniga yoqqan,

Ketmonlari kun tig'ida

yarqirab boqqan;

G'o'zalari o'sib,

gullab,

ko'saklar taqqan:

Bu — tog'larning etagiga

yozilgan gilam,

Sog' o'pkasi

to'lib nafas

olguvchi bu dam,

Tovushlari kuyga to'lib

Pishqirgan daryo,

Hech g'uborsiz sezilguvchi

bu toza havo,

Butun borlig'i-la
 orzuga to'lgan,
Husnlari qip-qizarib
 yetilgan go'zal,
Tomirlari kuchga to'lgan
 bu yosh navqiron,
Yana yangi o'ljalarga
 otlangan karvon;
Zo'r safarga ruh berishga
 havoday darkor;
Yangi beshning notasini
 olgan bastakor;
Barcha yaproqlari
 birday ko'kargan,
Novdalari jonli,
 bu noyob bahor,
Qarashlari nurga to'lgan
 bu ulug' vodiy
 ko'm-ko'k!..

Ey, Farg'ona!
Ey, diyorum vodiysida
 paxtakor — dehqon,
Ey, o'lkamiz tomiridan
 jo'shgan toza qon.
Salom senga!
Ey, Qaynardan
 chiqqan qahramon!
Salom senga,
 o'lkamizning ko'z qorasiday,
Gard yuqtirmay,
 gurkiratib
 ko'kka ko'targan;

Salom senga!
Polosonlik
Haydar kapitan!
Ko'm-ko'k...
Ko'm-ko'k...
Ko'm-ko'k...
Mehnat — sharaf va shon bo'lgan
vodiylar
ko'm-ko'k...

G'o'za guli bilan
qalblari o'sgan,
G'o'za yaprog'i-la
qalbi ko'kargan
vodiylar
ko'm-ko'k...

Ko'm-ko'k vodiylarda
po'lat izlardan,

Kechayotir qora poyezd
uchib
qarsillab,

Elektrik tomiridan
oqqan qonlardan

Butun o'lka
shimirayotir
chanqab,
harsillab,

Butun o'lka ishlayotir
pishinib, terlab...

Ey, Farg'ona!
Ey, bo'yniga
qora to'rva
osgan jonlardan,

Ey, har kuni,
 gadoylikka
 tortgan onlardan,
 Ey, tanlarni
 shilib yotgan
 harom qonlardan
 Biryo'lasi ozod bo'lган
 azamat o'lka!
 Ey, haqqi-la
 bosh ko'tarib,
 yangi davrga,
 Millionlarning keng bag'rige
 ulg'ayib kirgan,
 Ey,
 mushtumzo'r o'sgan
 yerga elektrikdan,
 Traktordan,
 kombayndan
 qo'zg'alish bergen.
 Bo'la,
 yumshoq,
 semiz,
 serob siynalarida
 Yangi davr yuragining
 o'ti ko'kargan,
 Yuraklari tetik urgan
 Oppoq, momiq tan!
 Ko'm-ko'k...
 Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...
 Dillar havas bilan to'ladi,
 Yuzlar
 sevinch sepib kuladi.

23237/1

To'rt tomoni osmon bilan
o'ralgan vodiy!
Kundan-kunga
husni ortgan oydek to'ladi.
Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...
Yangi kunga chiqqan
vodiy oyoqlarida
Och it kabi,
sudralguvchi davr o'ladi.
Ey, Farg'ona!
Mushkul kunlar bolasini
tishida tishlab,
Yuvib,
tarab,
sevib,
o'pib,
quchib,
opichlab,
Ey, baxtlarni balog'atga yetkizgan ona!
Yozilib,
yetilib,
to'lib yotadi —
Yoppasiga
yangi kunga
erishgan Quval..
Nafaslari to'lib-to'lib
quloch otadi —
Uyquni bark etib kerishgan uva.
Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...
Dunyolarni qoyil qilgan
uvalar
ko'm-ko'k!..

Mardchasiga otni surgan
 quvalar ko'm-ko'k...

Bu g'olib shtorma tantanasidir,
 Bu bizning safarning
 zafar sasidir.

Dunyo ostan-ustun bo'ldi,
 Yangi dunyoning
 qarashlari o'tkir,
 hujumlari zo'r,

Yengilgan dunyoning bag'rini bosib,
 Yulduzga intilgan
 bu davr mag'rur,

Ishonch ko'zi bilan
 olg'a boqadur.

Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...
 Yo'lida katta dovon bor hali,
 Qizil sohillarni
 mahkam tutaylik:

Shunda dengizlarda
 suzmas yot qayiq;

Baland cho'qqilarga
 ko'tarilganda

Toza nafaslarni
 to'la olaylik.

Ey, baxtli vodiyning bolsheviklari!
 Ey, o'lkani
 elektrik daryolariga

Yosh boladek cho'miltmoqchi
 bo'lgan fidokor!

Ey, bolaga toza ko'yaklar
 kiygizuvchi o'rtoq
 paxtakor!

Ko'm-ko'k vodiylam
ko'z qorasiday
asra!
Barglariga gard ham yuqtirmay!
1932

XAYRLASHUV

O'zing so'yla, shu qora ko'zlar
Unutarmi shu uchrashishni?
Shuncha o'sib nishtar kipriklar
Ko'rganmikin shu go'zal tushni?

Yonib turgan olov dudoqlar
Boshqa labga bo'lganmikin band?
Yuraklarning o'ynashi hech bir
Bo'lganmikin shunchalik baland?

Unutmasman seni hech qachon,
Yuragimda qolarsan abad;
Sen qolarsan men bilan mangu,
Yuragimga oshna bo'lgan dard?

So'rog'im shul: qora ko'zlarning
Yo'qolmasin sira vafosi.
Boshlarga tushmasin hech qachon
Shu ko'zlarning hijron jafosi.

Sen qolarsan bu yerda yolg'iz,
Men bo'larman hamon darbadar,
Quyosh ufqlarga boqquncha,
Oy aylanib o'tgunga qadar.

Xayr sizga, ikki ohu ko'z!
 Xayr yo'ldosh, xayr oshino!
 Xayr sizga, ey ikki yulduz, —
 Xayr senga, ey go'zal dunyo!

1934

DARYO KECHASI

Daryo go'zal... osmonda yulduz,
 Oy suzmoqda adir ustidan.
 Soya solgan ko'kdan oq bulut
 Fazolarga o'z uyqusidan.

Kecha go'zal, daryo tinimsiz,
 Ag'darmoqda soyning toshini,
 Dalalarga cho'zib oyog'in,
 Qorliklarga o'rab boshini.

Tog'lar boshi qorga ko'milgan,
 Qor ustida oppoq bir tuman...
 Tuman xayoliga quyulgan,
 Pag'a bulut, firuza osmon.

Tinmay oqar daryo pishqirib,
 Quyi ketar oyli tun bo'ylab;
 Soy bo'yidan daryo tunidan
 Vodiylarga hikoya so'ylab.

Daryo to'lqin, shamol qo'ynida
 Porillamoqdadir chiroqlar;
 Yorishmoqda uning aksidan
 Cho'qqilar, adirlar va tog'lar.

Kecha bo'ylab, daryo yoqalab,
O'tmoqdadir katta namoyish;
Kelmoqdadir baland qirlardan
Yer qo'organ portlashdan tovush.

Yer qo'porib baland baqirgan
Qirdan toshar bir kuchning sasi;
Gidromontyor suvidan qochgan
Shag'allarning so'ngsiz g'avg'osi.

Soy shamol... daryoda to'lqin...
Parom suzmoqdadir chayqalib;
O'tmoqdadir ishchi, uyg'oq tun,
Yer va ko'kka gavg'o, jar solib.

Tun tinchini buzgan zo'r daryo,
Tovlanmoqda inson qo'lida,
Qurilmoqda buyuk bir bino
Daryo o'tgan o'lka cho'lida.

Dovul qoqib o'tar uyg'oq tun,
Tayyor bo'lar tongda bosh to'g'on,
Cheksiz shodlik bilan yugurar
Sahrolarning yuragiga qon.

Pishqiruvchi vahshiy daryoga
Ko'rsatilar tamom yangi yo'l.
Bosh injener zavq bilan qo'yar
Chirchiq tutgan bir qog'ozga qo'l.

Bo'yin egar daryo amrga,
Oqa boshlar yangi iz bilan,

Injenerlar, ishchi zarbdorlar
Mag'rur kular yongan ko'z bilan.

Tun ham o'tar mazmunga to'lib,
Unutilmas daryoga bu on.
Unutolmas buni hech qachon
Daryodan zo'r va mohir inson.

1935

KUYCHINING XAYOLI

(Fozil Yo'Idoshga)

1

Bu xayol so'ngsizdir, osmon kabi keng,
Bu xayol tugamas hech hali-beri.
Uning boyliklari umrlarga teng,
Hamon belgisizdir boshlangan yeri.

U sira to'xtamas, toshar doimo,
Qilib bo'larmikan uni hech bayon?
Cho'llarda darbadar, tog'larda tanho,
Har kecha yangi sir bo'ladi ayon...

So'zsiz hikoyalar, eng buyuk sirlar,
Birdan tilga kelar daryoday toshib,
Yuzlab qabilalar, o'nlab asrlar
Uning osmonidan o'tar adashib...

2

«Oshiqning fahmidir qorong'i kecha»,
Quyosh uyqusiga to'yib turguncha,

Ko'zi yoshliklarning bordir yo'ldoshi,
«Yig'lasam, holimga yig'lar bir necha...»

Ayrliqqa tushib yig'lar ikki yor,
Birisini intizor va birisi xor;
Sabrlar tugadi, sindi kosasi,
«G'am bilan sarg'aydi guldaiyin diydor».

Qirg'oqlarga urar daryo o'zini,
Osmon qurshamishdir tuproq yuzini.
Bahoriy dashtlarga, gul vodiylarga,
Oybarchin tikmishdir qora ko'zini...

3

Bunda na uy bordir, na tom, na devor,
Dalada o'tadi qish, bahor va yoz;
Tog'larda yo'lchini ajaldan saqlar
Ko'llardan qog'olab uchib chiqqan g'oz.

Inson o'rganmagan o'troq hayotga,
Uning-chun vatandir har gulshan vodiy;
Bugun qo'noq ekan shu bahor voha,
Ertaga bir yerga ko'chmakdir yodi.

Karvon yo'lga tushar yuklarni ortib,
Sukunat buzilar qo'ng'irog'idan;
Qullar uyur haydar surini tortib,
Elchiboy oshadi bulut tog'idan.

Dalani tutadi yilqilar, qo'ylar,
Baxmaldan yopilgan o'tovlar, uylar,
Qirq kecha, qirq kunduz tinmayin o'tar
Bovvachcha o'g'ilga atagan to'ylar.

4

Oyoqlar ostida yastanar soyollar,
 Qoshlarda charx urib aylanar oylar.
 Qullarga amr etib qamchi o'ynatib,
 Ekinni bilmagan yilqichi boylar.

«Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi,
 Urushda bilinar mardning sarasi»,
 Oltoychalik yo'lida qolgan sho'r elning
 Ko'rinarmi yulduzining qorasi?

Qora bulutdayin bosib kelar yov,
 Alplar davra solar, otlari asov;
 El chiqar, faryodi uchar ko'k sari,
 Qullar isyon qilar qo'lida kasov...

5

Kuy ko'pdir, alamlar butun bir olam,
 Uni tashuvchilar yashar sahroda,
 Kuylarda qaqshaydi faqirlik va g'am,
 Kuyning tinglovchisi haydaydi poda.

Kuy ko'pdir, qo'shiqlar shu osmonni
 Berkita oladi bulutlar qadar;
 Kuy ko'pdir, qo'shiqlar millioncha jonni
 Qo'zg'ata oladi, muhtaram padar!

Ko'y ko'pdir, har yurak saqlaydi armon,
 Kuy aytib doimo qushlar chiyillar;
 Kuy berar yurakka hordiq va darmon,
 Kuy aytib uchadi bevatan yellar.

Kuy ko'pdır, isyonkor dod kechasida —
Benomus etildi kuychining qizi;
Kuy ko'pdır, kuychining peshonasida
Jazo otryadining tovonin izi.

Dorlarga osildi juvonning eri,
Qo'shiqlari etildi majruh va betob,
Sahroni qoplagan elning shoiri
Qolib ketdi cho'lda bekitob.

6

Endi qo'shiq hurdir, yuraklar bedog',
Qaddini ko'tardi o'lka va odam,
Qo'shiqlar mo'l bo'lsin, tetik va quvnoq,
Ota, zamonimiz g'azalxon bir dam.

Dalalar, sahrolar, cho'llar baxtiyor,
Kuy aytib yashaydi manzillar, ellar,
Timmasdan kuy aytar suyukli diyor —
Qo'shiqdan osmonlar, tog'lar gumburlar.

Kuy aytar bulutlar ichidan inson,
Kuy kerak mardona, juvon hayotga,
Kuy aytar lochinlar o'lkasi — osmon,
Ota, qo'shiq aytgan yetar murodga!

1936

OLKA

Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim deb seni, uyg'ondim,
Odam baxti birgina senda
Bo'luriga mukammal qondim.

Qulog'imga noming kirganda
Qumlik kabi tashna boqurman,
Sening jannat vodiylaringdan
Nahrlarday to'lib oqurman.

Bilsinlarkim, yo'ldoshim bo'lmas
Ko'zda yoshi bilan kulganlar,
Tillari bor, o'zлari hayot
Lekin, yurak-bag'ri o'lganlar.

Har aytganing buyuk jangnoma,
Qayga desang qaytmay keturman,
Ko'zlarimni yummasmañ aslo —
Daryo kabi uyg'oq o'turman.

1937

**DARYO TINIQ,
OSMON BEG'UBOR**

Baxtim borki, har narsa go'zal
Ko'rinati mening ko'zimga.
Vodiylarga quyosh to'kkан hal,
Shuning uchun sarxat so'zimga.

Aybim yo'qdir, gul vodiylarda
Badbinlarni xushlay olmasam.
Ko'kka qarab turib saharda
Shod o'tarman, deb ichsam qasam.

Oppoq qordir tog'larning toshi,
Daryo tiniq, osmon beg'ubor,

Shu yerdadir o'lkanning boshi,
Suv bo'yida mening uyim bor...

Bu o'lkada qalblarning toza
Va poklari kelib uchrashar,
Odam topgan baxtni ovoza
Qilib gullar, bulbullar yashar.

1937

«*Muhabbat ul o'zi eski narsa,*
lekin har bir yurak uni yangirtadi...»

Hodi Toqto

Har yurakning bir bahori bor,
Har bir qalbga ishq bo'lar mehmon,
Har yurakda gullar muhabbat,
Bo'ston etar uni begumon.
Lekin Layli boshiga kelgan
Qora kunlar bizga yot bugun;
Bizga yotdir Shirin baxtini
Poymol etgan u qop-qora tun.

1936

OFELIYANING O'LIMI

1

Orzung bor ko'ylashga, lekin qalbingdan
Tarqalar bir ma'yus va g'amgin sazo.
Qo'yningda bir quchoq oq va nafis gul,
Lekin ruhing to'la motam va azo.

2

Foyda yo'qdir, go'zal, zolim falakdan
 Qancha dod qilsang-u, qancha shikoyat,
 Qancha yolvorsang, qancha to'ksang yosh,
 Baribir, alamga bo'lmas nihoyat.

Qancha ma'sum bo'lsang, qancha vafodor,
 «Qorday oq bo'lsang-u, muz qadar toza»,
 Hech zamon kor etmas, shum falak badkor.
 O'qilur sevgingga qora janoga.

Nega kerak edi shu chiroy, shu o't.
 Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq?
 Nega lablaringdan husn oldi yoqut,
 Nega siynang bo'ldi qor tog'iday oq?
 Husn balosiga kim etdi duchor?

Holbuki, busiz ham qanchalar alam,
 Holbuki, busiz ham qiynalardi jon,
 Busiz ham yetardi falokat, azob,
 Faqat go'zal emas, hatto xunuk qiz
 Ko'z ochib ko'rardi yolg'iz iztirob.

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan
 Tarqalar bir ma'yus va g'amgin sazo.
 Qo'yningda bir quchoq oq va nafis gul,
 Lekin ruhing to'la motam va azo.

Shundayin latofat, shu oq ko'krakka
 Nahot munosibdir shu g'amgin libos.
 Onang shuning uchun suyunganmidi,
 Nahotki, shu sifat go'zallikka xos.

Javob berib ko'r-chi, nomard tabiat,
Bunchalik go'zalni nechun yaratding?!
O'zing gunohkorsan, osiysan behad,
Nechun yaratding-u, o'tlarga otding?

Hali sevishmoqdan shumidir ma'no?
Faqat azob bordir qismatda, nahot?
Nahotki, sevgiga shudir tamanno?
Nahot go'zal uchun faqat, faqat dod!..

3

Hamlet sevar edi, uning qalbini,
Go'yoki ikki cho'g', ikkita otash
Bo'lib yondirardi ko'zing tun-kuni,
U ham qilmas edi bu otashga g'ash.

Hamlet yuragiga berardi hayot
Sening u otashin, gulbarg lablaring,
Jasur xayoliga bog'lardi qanot
Bog'idan bir kezib o'tganining sening.

Faqat netmak kerak, bordir na chora,
Sevguvchi yurakni qurshasa balo?
Butun olam ko'zga esa qorong'i,
Balolarga Hamlet esa mubtalo?

Shubha otashida yonar tafakkur,
Dunyo bir g'amxona, «Doniyo zindon».
Yo'qdir yuraklarni yoritgali nur,
Zanjirdadir sevgi, qafasdadir jon.

Ishqiy tug'yonlarga qaynab yurakdan
Chiqolmas bir tovush, bir sazo, bir un,

Etmishdir yerdagi oddiy azoblar
Allaqachonlarkim Hamletni majnun.

Hosil bo'lmas murod, hech narsa nasib,
Qancha yig'lasang-u, qancha cheksang oh;
Sevguvchi yigitni solmishdir yo'lga
Tunda ertak aytgan bir mudhish arvoh.

Jannat, farishtalar, toza malaklar,
Bir puldir eng ma'sum va eng pok o'pish,
Do'zax ichra Hamlet yonib alaklar,
Butun olam ko'rinati go'yo tush.

4

Ko'ngil gulshanini qopladi xazon,
Yo'qoldi shunchalik bebahoh sevgi.
Shu bo'ldi bokira, dunyo ko'rmagan
U yoqut lablaring qora taqdiri.

Sevgi ko'klarida uchuvchi lochin
Arshidan yiqlidi va ko'hna dunyo —
Butun armonlarni qul qilgan otash
O'zi bo'lib qoldi sevgiga gado.

1936

JANUB KECHASIDA

Sen bo'lmasang, shu on to'lqinlar
Ko'rinasdi sira ko'zimga,
Sen bo'lmasang o'zimning ko'nglim
Kirmas edi aytgan so'zimga.

Sen bo'lmasang, etmasdi xursand
 Suv ustida suzib yurgan oy.
 Hamisha sho'x, doimo baland,
 Yulduzdagi jon yoqar chiroy.

Qarashlarning tinchimni olib,
 Chertib ketdi qalbim torini,
 Shundan keyin sezdim yurakda
 Shuncha kuchli o'tning borini.

Aytib ber-chi, shuncha sevganlar
 Bo'lganmikin mencha baxtiyor?
 Aytib ber-chi, qaysi qiz burun
 Sevib bo'lgan umid bilan yor?

1936

XAYOLING-LA OTADI TUNLAR

Bu bir uyqu, behuda bir tush,
 Axir bu bir aldoqchi ro'yo,
 Mumkinmidir sening sevganining
 O'z ahdidan qaytgan mish go'yo!

Shu rost esa o'tga tushsin jon,
 Yomg'irdayin boshga tushsin g'am.
 Yashaganim — dunyoda yolg'on,
 Qasam ichdim: emasman odam.

Nomard ketay, yurakda tug'yon
 Shu to'lqindan zarra kam esa,
 Nomard ketay, shu otash yurak
 Endan boshqa o'zgani desa.

Nomard ketay, bo'lsa yurak tinch
Va sevgiga bo'lsa nihoya.
Dushman bo'lsin menga baxt, sevinch,
G'am buluti boshimga soya.

Harna bo'lay, aylasam jafo,
Sevinchimni boy berib qo'ysam.
Harna bo'lay, etmasam vafo,
Sendan boshqa birovni sevsam.

Dardlarimga topmayin chora,
Va do'stga zor, dushmanlarga xor;
Mayli, bo'lay tanho ovora,
Mandan qochsin hamisha bahor.

To'lqin borda tinmaklik yo'qdir,
Qirg'oqlarga tegmakdir odat.
Bilarmisan, sevgan kishiga
Sodiq bo'lmoq o'zi saodat.

Kecha-kunduz yulduzlar notinch,
Dam olishni bilmas to'lqinlar...
Seni o'ylash o'zi bir sevinch,
Xayoling-la o'tadi tunlar...

1936

CHIMYON ESDALIKLARI

Tog'da yurar ohu bir juvon,
Sochimni taraydi shabboda,
Menga bugun yaqindir osmon:
Bulutlardan teppamda poda.

Qashqa tog'ning yarqirar qori,
Yonbag'rida xuddi chumoli, —
O'rmalayman va borgan sari
Ochiladi bu holning foli:

Bunda gulning eng asllari,
Baxmal gilam, alvon poyondoz,
Tabiatning bor fasllari:
Bahor va yoz qarshimda peshvoz.

Qoyalarda asrlik doston,
Daralarda oppoq, mangu qor,
Cho'qqilarda otash saraton,
Yonbag'irlar binafsha bahor.

Go'zallikda tiganmas buloq,
Shamolda o'ynaydi shalola,
Bahor yurar ko'chib tog'ma-tog',
Qo'llarida lola piyola.

Yo'llarimda zangori ko'llar,
Oyna kabi tiniq va bejon,
Men umrimda ko'rmagan gullar —
Nom qo'yishda ojizdir inson.

Bu go'zaldir, bu ajib bir hol,
Ham vahshiydir, hamda osuda.
Bo'lmasinmi shoir tili lol
Shamol uchib o'ynasa suvda?

Bolaligim tutdi va bir bor,
Buloq uzra yotdim uzanib,
Va san'atga bermasdan ozor
Hovuch-hovuch suv ichdim qonib.

1936

Kecha. Sahro. Uyqu va shovqin.
Kecha cho'kkан uzoq ufqqa.
Terazadan to'nib qarayman,
Ko'zim cho'mib qorong'ilikka.

Terazadan to'nib qarayman,
Uyqu bosgan so'ngsiz sahroni,
Uyquda yer, uyquda osmon,
Ko'rinnmaydir yulduz nishoni.

Boshlamishdir o'z hayotini
Sahroning ustiga cho'kib tun,
Jimjiddir o'ylanib yotganday,
Kunduzini etgandi yakun.

Sahro yotar so'ngsiz, tep-tekis,
Sahro yotar ajib tush ko'rib.
Undan o'tar tinmay poyezdlar,
O'tar otash yuragi urib.

Poyezd chopar, masofalarni
Qamrab bosar oyoq ostiga,
Dovonlardan, qirlardan oshar,
Tog'liklarning tushar qasdiga.

Poyezd o'tar tunni oralab,
Qushday uchar, uchar bexatar,
Poyezd o'tar qardosh xalqlarning
Do'stligidan berajak xabar.

1936

HOLBUKI, TUN...

Shag'irlaydi betinim daryo,
Shag'irlaydi vahm to'lgan jar,
Shag'irlaydi qorong'i dunyo,
Shag'irlaydi vodiy, daralar.

Shag'irlaydi... bermaydi uyqu,
Xayollarim bo'lar parishon,
Bir izlanish boshlanar menda
Tushunchamga yana kirar jon.

Holbuki, tun — bunda odatda,
Butun borliq uxlardi sokin,
Butun yer osmonga o'ranib
Olar kabi kunduzidan tin...

Soyga tushdim, ko'kda chiqdi oy,
Nur yog'ildi oq bulutlarga.
Nurga to'ldi dara, to'ldi soy,
Nur yog'ildi qorong'i jarga.

Kezar edim, meni tinmayin
Ta'qib etar bir uzun soya,
Bilmadimkim, bormidir ishi,
Yo istarmi aytmoq hikoya.

Ko'zlarimda yonar uchqunlar,
Zilol suvg'a oy edi sirdosh,
Yaltirardi, doim tovlanar,
Oy nuriga cho'miluvchi tosh.

Ko'zni tikdim, parquv bulutlar,
Ko'char edi zilol va toza.

Lochin kabi samolyot uchar,
Uchar edi solib ovoza.

Tikilgandi ko'zim qog'ozga,
Qo'llarimda yugurar qalam.
Qurshamishdi uni hayajon,
Bir intilish, bir orzu bu dam.

Shag'irlardi osmon va havo.
Shag'irlardi butun koinot,
Shag'irlardi betinim daryo,
Shag'irlardi daryoda hayot...
Holbuki, tun...

1936

XAYOLIMDA BO'LDING UZUN KUN...

Xayolimda bo'lding uzun kun,
Seni izlab qirg'oqqa bordim.
Och to'lqinlar pishqirgan tunda,
Topib ber, deb oyga yolvordim.

Ishon bunda, seni doimo
Esga solar chiroqli tunlar,
Sho'x yulduzlar, salqin saharlar,
Esga solur baxtiyor kunlar.

Toleimning oshinosi sen,
Sen sevgimning ko'kargan bog'i.
Sening bilan birga iqbolim,
Ishonchimning sen vafo tog'i.

Meni qurshar salqin bir havo,
Suv ustidan tun quyuladi.
Shunda qancha-qancha gaplarni
Esga solib oy ham to'ladi.

Kecha jumjit, yolg'iz to'lqinlar
Pishqiradi bilmay tinimni.
Hiylagar oy, sehrgar dilbar.
Solib qo'yding yodimga kimni?..

1936

ISHIM BORDIR O'SHA OHUDA

(Ilhom parisiga)

Ishim bordir o'sha ohuda,
U menga ko'rinar har zamon,
Fikrimni chulg'aydi beomon,
O'tlarga tashlaydi xo'p yomon,
Ishim bordir o'sha ohuda.

U ko'rinar soydagи suvda,
Bir paridir toza, osuda...
Qoyalardan uchar bemalol,
Qushlar ko'rsa titrab qolar lol,
Ishim bordir o'sha ohuda.

Tunda uqlamadim axtarib,
Kutib turdim buloqqa borib,
U-chi? Qoqib o'tdi qanotin,
Oq bulutlar bag'rini yorib,
Ishim bordir o'sha ohuda.

U yurganda ochilar gullar,
Baxmalga burkanar bahori cho'llar,
U bor yerda jonlanar hayot,
Uni ko'rsa chayqalur ko'llar,
Ishim bordir o'sha ohuda.

O'lkasidan o'tar shabboda,
Sevinch bilan to'lug'dir jomi:
Go'zallarga u tutar boda,
Ko'rsa kelar pari ilhomni, —
Ishim bordir o'sha ohuda.

Qo'shig'ini tinglar Qashqa tog',
Og'ushida mangudir bahor,
Chiroyida zarra yo'qdir dog',
Dalasida yozda uxlар qor, —
Ishim bordir o'sha ohuda.

Men halok etarman o'zimni.
Tinchlanmasdan, topmay qo'ymayin,
Shikoyatim, dardim, arzimni,
Qulog'iga so'ylarman mayin, —
Ishim bordir o'sha ohuda.

Usiz mening tinchim yo'qolur,
Usiz yurak cholg'usiz qolur,
Usiz esdan chiqar odatim,
Unutilar bor saodatim, —
Ishim bordir o'sha ohuda.

1936

QORA DENGIZ BO'YIDA

(Yog'in ertasi)

Bukun kun bo'ladi: tog' tepasida,
Yaproqlar yaltirab turibdi,
Yulduz yo'lga chiqib saharda,
Kelayotgan kunni ko'ribdi.

Bukun kun bo'ladi: xurmo barglarin
Silkitmoqda yengil shabboda,
Bukun kun bo'ladi: ravshan va bedoq,
G'ubor yo'qdir zarra havoda.

Bukun kun bo'ladi: dengiz chayqalar,
To'lqinlarda sira yo'q tinim.
Suv bo'yida turib intizor,
Kun yo'liga tikilaman jim.

Kunga bo'lgan ishqim, quyoshga
Topinganlar ishqidan buyuk.
Kun bo'ladi: marmar va zilol,
Ko'rinaldi poyoni yo'q ko'k.

1936



BAHOR

Havo ko'm-ko'k, unda yo'q g'ubor,
Quyosh nurin behad sochadi.
Yerda ajib to'lishib bahor,
Har kun yangi chehra ochadi.

Qishdan chiqqan bog'chalar, bog'lar,
Bezanadi bahor guliga.
.Maysa o'tlar, zilol yaproqlar
Ilhom berar kishi diliga.

Ariq labidagi binafsha,
Kashf etadi o'zi bir bahor.
Ko'ngillarga beradi nash'a,
Sayrab bulbul chiroyli nahor.

Xayolingni maftun etadi
Go'zal oppoq firuza tonglar.
Uyqularni olib ketadi
Allaqanday mayin shamollar.

Bahor ko'rib yashnar daralar,
Qir ham ish zavqiga to'ladi,
Mehnat bilan zumrad dalalar
Kundan kunga dilbar bo'ladi.

Ishga chiqar, sevib, shoshilib,
Quyosh bilan teng turgan qizlar;

Ishlar bahor kabi ochilib,
Yonar baxmal loladay yuzlar.

Bahor, yoshlik ishga tushar tez,
Tongda mehnat zavqli bo'ladi.
Baxtli tongday kulgan o'zbek qiz
Traktorning rulin buradi.

Qishi bilan yetilgan tuproq
Qiz qo'liga ochar ko'ksini.
Oltin kuzda ochilgan oppoq
Hosil erkalaydi ko'zini.

Yuraklarda, ko'zlarda bahor,
Yerda, ko'kda bahor yuradi.
Hatto sochi oqargan chollar,
Bahor kabi yashnab kiradi.

Shunday sochib gullarin har gal,
Yer-u ko'kni bezash odati.
Gul yozadi bahordan go'zal,
Shod insonning hur saodati.

1936

KUTISH

Ota-onan uyquga ketdi,
Uyda faqat Inobat bedor.
Uning kutgan kunlari yetdi,
Bukun o'zin sanar baxtiyor.

Kichik qalbda buyuk sevinch bor,
Yer yuzini tutib ketguday.

U birovni kutar beqaror,
Qanot bo'lsa, o'zi yetgiday.

Qiz biladi, shoshadi yigit,
Samolyotda qiladi parvoz.
Qiz deydi: «Dil, yostiqni tark et,
Toza parday qanotingni yoz!

Qanoting yoz! Ishqimni olib
Yulduzlarning qavatida uch.
Oy nuriga arg'imchoq solib
Bulutlarning beshigini quch.

Uchuvchiga bo'lding oshufta,
Osmanni ham o'z makoning bil.
Po'lat qushni tutib sen asta,
Kutganimni sen hikoya qil!

Oq bulutdan oshib unga yet,
Aytki, yurak to'la faxrim bor.
Vatan ko'kin saqlarkan yigit,
Qiz qilmasin nega iftixor?...»

Yurak yorga uchib ketganday,
Qiz o'lтирар ko'кдан узмай ко'з.
Ming ko'з bo'lib yigit boqqanday,
Чақнаб қарар қизга мінг ўлдуз.

Yонар ўлдуз, ко'кда ой кулар,
Бори қарар қизнинг ўзига.
Сіх суғланар, гохи rashk bilan
Онты-қарая оқар yo'liga.

Totli xayol g'arq etgan, qiz jim,
Na qilishin o'zi bilmaydi.
Esar mayin yel bilmay tinim,
Qizning to'sday sochin silaydi.

Qiz ko'nglidan kechirganlarin,
Go'yo yel ham, oy ham biladi.
Ne qilsinki, ko'zi sirlarin,
Oq dil bilan so'ylab beradi.

Qiz kutishning zavqi bilan mast,
Yana yuragida o't yondi.
Go'yo oy-la so'zlashgach birpas
Dilidaqi armoni qondi.

1938

XAYOLLAR

Ey xayollar, yelday sezdirmay
Kelasiz-u, chulg'aysiz o'yim.
Hatto bezgan chog'da ham g'oyat
Ko'ksingizga tashlayman o'zim.

Zotan, sizziz bo'm-bo'shday hayot,
Dil qanotsiz qush bilan tengdir.
Hatto ikkov zo'rg'a joylashgan
Xonam siz-la osmonday kengdir...

Tun uxlaydi shirin uyquda,
Oy-yulduzda oqadi hayot.
Siz-chi, meni etasiz maftun,
O'yim chulg'ab yelpiysiz qanot.

Bodom tog'lariga chirmashib
 Izlashasiz birga ohuni.
 Oqqush kabi yengil va ko'rakam,
 Men-la kechib o'tasiz suvni.

Ko'z yoshiday tiniq har buloq
 Tabiatga tutar oyna,
 Mag'rur boshin qorga o'rab tog' –
 Aks etadi bir oppoq siyna.

Siz tiklaysiz sevgi va ilhom
 Uyi bo'l mish oppoq o'tovni.
 Va esimga solib qo'yasiz
 O'zi esdan chiqmas birovni.

Shunda sizga yangi nom berib
 Hayajonda atayman Sevgi.
 Yuksaltirar dilimni tog'day
 Shu yangi his, shu yangi sezgi.

Mast nazar-la atrofga boqib
 Tabiatda ko'raman chiroy.
 Kun shu'lasin qamrab to'lqinga
 Sho'x ko'pirib oqar daryo, soy.

Oltin rangga kirib ko'rinar
 Dala yo'ldan ko'tarilgan chang.
 Cho'l chechagin menga tutqizar
 Qирг'оқдаги har tosh, har xarsang –

Sehrgarsiz tirik xayollar,
 Sehringizga etasiz maftun.
 Yo'qsa, cho'lida qiyg'och gulshanni,
 Tikandan gul undirmak nechun?

Oqshom g'uncha atab ketganim
Xandon kulib boqsa ertalab,
Salqin kecha kamol toptirgan
Sohil mendan qilsa she'r talab —

Shunda sizni chechakka o'rab,
Nomingizni atayman Ilhom.
Muk tushaman she'r mashqiga,
Sevinchiga, dardiga dil rom.

Oppoq qog'oz, kichik bir qalam,
Izlanishda o'tib ketar tun.
Goh sevgi deb sarlavha qo'yib
Iztirobida yonaman butun.

Go'zal oqshom kabi sezdirmay,
Kelasiz-u, chulg'aysiz boshim,
Goh qiynaysiz, goh yayratasiz
Tuni bo'yi bo'lib yo'ldoshim.

1947

VATAN TONGI

Nurga to'lib tong otdi hur o'lkamda,
Ming-ming g'uncha lab ochdi zo'r gulshanda,
maysa uzra shabnamlar,
she'rday qaynoq shod damlar,
yashnab chorlar...
Vodiylarg'a yoyildi oltin qo'llar,
Fabriklarda aylandi million rullar,
suvga qongan sahrolar,
yangi yashil o'rmonlar,
yashnar bog'lar...

Yaylovlarda o'tlaydi qo'zi, qo'ylar,
 Sof osmonda yangraydi quvnoq kuylar,
 baxtiyor zamonidan,
 qahramon xalq shonidan
 qizlar kuylar...

Gulgun shafaq rangi bor yonoqlarda,
 So'nmas quyosh nuri bor bayroqlarda,
 tinchlik olib ellarga,
 kirsin toza dillarga
 mangu tonglar...

1956

MENING TONGIM

Ona tuproq oromda yotar,
 Olib tungi rizqi-qudratni.
 Mening tongim qalbimda otar,
 O'ydan, ko'zdan haydab zulmatni.

Tundan tongni uzib olaman,
 Katta bo'lzin deb ishli kunim.
 Qog'oz uzra sahar yoyaman,
 Bag'ishlayman umriga qo'nim:

Oy qoldirgan momiq izlarni,
 Ko'chiraman she'r satriga.
 Isitmovchi sho'x yulduzlarni
 Payvandlayman yerning taptiga.

Olov chehra qizlar qatida
 Baxt to'qishga beraman farmon.
 Toki yashab inson vaqtida,
 Quyoshga tik boqsin bizsimon.

Mening tongim boshlanar tundan,
Kuzataman g'uncha kulishin.
Tog' ortida boshlanar kundan
Yaproqlarda shabnam so'nishin.

Siynaday oq tong uyg'onishi
Husniga yo'q kunduzda qiyos.
Sahar bedor qushning xonishi
Ajib shodlik, yoniq ehtiros.

Qay uydadir yig'ladi go'dak,
— Ber onasi, xushbo'y ko'krakni!
Unga temir qanolalar kerak,
Tark etmak-chun bu tor yo'rgakni!

Uzoq-yaqin derazalarda
Birin-ketin yonadi chiroq.
Shoshqin qadam, kuy, pardalarda
Yangi tongga kiradi tuproq.

Tundan yulgan tongim:
Goh bir she'r,
Goh o'qilgan bir kitob bo'lur,
Goh umrning o'tgan behosil
Sahfasiga bo'm-bo'sh bob bo'lur...

1970

MUHABBAT TONGI KULGANDA

Oqshom edi, oydin ko'prikda
Barno qiz-u yigit turardi;
Oyni kutgan oqshomgi ko'kda
Beshik-beshik bulut yurardi.

Bulutlarning yorib quchog'in,
 Oy ko'rsatdi olmos yuzini.
 Mag'rur tashlab yerga nigohin,
 Tinglab qoldi yigit so'zini.

«Xohi inon, xohi inonma,
 Sening sevging qilmoqda shaydo.
 Bunday yonish begona jonda
 Bir o'chmas o't bo'libdi paydo!»

Oy suzadi, yel esar mayin,
 Ikki qalbni yoqar bir otash.
 Yoniq dilning baxtiyor nayin,
 Yutmoq bo'lur sukut jafokash.

Yigit sevgi tongini kutar,
 Qiz ko'ziday quyuladi tun.
 Lekin uzun kipriklar o'ta —
 Yarqiraydi baxtga to'la kun.

«U bir o'tki, seni ko'rmasam
 Iztirobga solar jismimni,
 Lol qolaman — axtarib topsam,
 Unutaman hatto ismimni.

Xoh inongin, inonma xohi,
 Xayolimda kezasan yolg'iz.
 Meni sevgin!»
 Yigit nigohi
 Sevgi tilar — sukut qilar qiz.

Oppoq pag'a bulut ustida
 Hayron suzar keksa oysuluv.

Yulduzlarni quchib ko'ksida,
Anhor to'lib jo'shib oqar suv.

Shu choqqacha ishqin qiz faqat,
Dildan so'rab aytgandi dilga.
Ilk, musaffo, katta muhabbat
Qiz dilidan kelmasdi tilga.

Hozir yurak bir nigoh bo'lib,
Boqqan edi yigit ko'ziga.
Oqshom og'ushiga nur to'lib,
Tong kulganday bo'ldi yuziga.

Yelda qo'shiq, ko'prikda shu'la,
Baxt-la tepdi ikki yosh yurak...
Oy so'zladi yulduzni to'plab,
Sevgi tongi haqida ertak.

1936

BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB...

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergen kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkinis,
Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog'laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog'ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo'ychivonlardan
Qayda shoir, deya ayladi so'roq.
Barida sukunat, ma'yuslik ko'rib,
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan za'far yonog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Lekin yotog'imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo'ldi-yu, kezib sarsari,
Mandan so'ray ketdi qalbimni tilib:

«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
«Baxtim bormi» deya, yakkash so'roqlab,
Meni she'rga o'tab suqlanib boqqan?

O'rik gullariga to'nmaydi nega,
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to'lib boqardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimni.
Uning rangdor, jozib qo'shig'ida
Mudom ko'rар edim o'z jamolimni.

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlariningda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?»

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
U ham g'amming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamda tutoqib daraxtga ko'chdi,
Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g'unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.
Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast.
O'l'magan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

1945

SENING MAFTUNING

Yaxshiki yigitda er yuragi bor,
U sevsə hech qachon yonmas yashirin.
Sevging to'g'risida o'zing ochding so'z,
Ey ko'zi qop-qora, so'zları shirin!

Mening sevganimni hali bilmasding,
Tanho o'rtanishdan men oldim lazzat.
Dilimni kemirgan muhabbat sirin,
O'zim ardoqladim, ham qildim izzat.

Qalbimga yozilgan muhabbat so'zi,
O'yimni chulg'adi menin har minut;
Lekin ishondimki, sen so'z ochmasang,
Shu dardda o'lsam ham etaman sukul.

Hatto bilmas edim sevarmiding sen,
Balki sevganıngdir bir baxtiyor qız.
Balki xayolingdan men behad yiroq,
Ammo sen dilimda kecha-yu kunduz.

Faqat o'yladimki, uyatdir qizga
Yigitga sevgisin aylasa izhor.
Bu — dog' solar dedim qizning husniga,
Endi ilojim yo'q bo'lmayin iqror.

Uzoq men axtardim, ammo o'zimda
Bir kuch topolmadim sevgidan ustun!
Men seni sevaman, sehrgar yigit,
Butun borlig'im-la men senga maftun.

1942

SOY KECHASI

Tog' ortidan ko'tarildi oy,
So'lim qirg'oq nur-la o'pishdi.
Ko'zgu bo'ldi jimjit oqqan soy,
Oyning aksi suvlarni quchdi.

Soymi yoki shabboda oldi
Mening ko'zimdagi uyquni?
Oy yorimni yodimga soldi,
Dilda toshdi sevgi to'lqini.

1943

YULDUZ

Uyda bo'g'ildim-u chiqdim eshikka,
Yer ustiga cho'kkан oqshomgi tuman.
Go'yo ko'zlarimga boqqanday tikka
Yashnardi bir yulduz xuddi sensimon.

Xuddi senday uzoq va senday yorqin,
Avji chaqnaganda so'nadi u ham,
Bir yupanch: sevgimning osmonidan
O'chmasdan yonasan, ey go'zal hamdam!

1944

KECHIR, QOLDIM G'AFLATDA

Seni birdan jonsiz ko'rdim,
Jonim chiqdi mening-da.
Es-hushimdan ajrab turdim,
Tuyg'um ketdi sening-la.

Koshki edi, men boshingda
Turgan bo'lsam o'sha dam.
Kirmasmidim men qoningga,
Bermasmidim jonni ham.

Ajal degan beshafqatga
Koshki otsam ishqimni,
To'ldirsam ham ko'kni dodga,
Saqlasam men baxtimni.

Koshki edi, so'ng qo'lingda
Erkalanib bersam jon.
So'nggi nigoh senda qolsa,
Men ko'z yumsam bearmon...

Yashash sening haqqing dedim,
Kechir, qoldim g'aflatda.
Yo'q edi-ku bo'lmoq mahrum
Bizning ilk munis ahdda?

1944

TUN

Tog' ortiga o'tib ketdi kun,
Sekin cho'kdi toza, salqin tun...

Men deraza ochganim chorbog',
Sokin uxlар tun ko'rpasida.
Mayin qo'shiq yoyilar har yon,
Esib o'tgan yel sharpasida.

Suv oqadi allalab tunni,
Hamma uxlар, uyda men uyg'oq,
Parcha qog'oz, kichik bir qalam,
Boshim uzra porlaydi chiroq.

Tunda qancha xayol, qancha kuy,
Men berilib quloq solaman.
So'z topolmay ifodasiga,
Rang axtarib shoshib qolaman.

Sof yel esar... Parvona uchar,
Chiroq atrofida o'rgilib,
O'zin urib part bo'ladi-yu,
Stolimga tushadi kelib.

Men yozaman, yulduzlar o'tar,
Har birisi so'ylar bir ertak.
Mana, Hulkar qarshimda chaqnar,
Yorqin tongdan keltirib darak.

Tun o'tadi, yana chorbog'dan
Ko'tarilar sahargi tuman.
Men-chi, asta chiroq so'ndirib,
Otayotgan tongni kutaman.

Ko'zlarimda erib ketdi tun,
Yoyilmoqda yorqin juvon kun...

Deydilarki, seni ko'rganda,
 Ko'zlarimda yonar jonli o't.
 O'sha o'tning yolqinlarida
 Sendan o'zga bor narsa unut.

Mudom dilga sodiq ko'zlarim
 Haqiqatni ko'mishi qiyin.
 Ko'zlarimda, qonimda kezgan
 O'sha sevinch, o'sha olov sen.

Mayli, o'zing mendan uzoqda,
 Lekin dilning o'ti bo'lib qol.
 Mening kuyim emas tuzoqda,
 She'r kerakmi, jon kerakmi, ol!

1944

KO'RGANMIDING KO'ZLARIMDA YOSH!

Sog'inganda izlab bir nishon,
 Qabring tomon olar edim yo'l.
 Keltirarding menga bir zamon,
 Endi har chog' men eltaman gul.

Keldim. Uzoq qoldim men sokin,
 Sening aziz boshingda yolg'iz,
 Osmon tiniq edi va lokin,
 Parcha bulut yetib kelib tez.

Ko'kda mening boshimda turib
 Go'yo yuragimday qalqdi u.
 Ko'zimdag'i yoshimi ko'rib
 U ham to'kdi yoshini duv-duv.

Biz yig'ladik tepangda shu kun,
Keldingmi, deb ko'tarmading bosh.
Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar,
Ko'rganmiding ko'zimda bir yosh?

1945

SEN QAYDASAN, YURAGIM

Qalb bo'lganda yiroqda
Iroda ekan ojiz.
Do'stlar ham ko'p atrofda,
Ammo men yakka-yolg'iz...

Birdan qalbim keksarib,
Qon ham qochdi yuzimdan.
Sen, sirdoshni axtarib,
Xayol ketar izingdan.

Qayga ketding yuragim,
Bitdi bardosh va toqat.
Suhbatingdir tilagim,
Dilda hasratim qat-qat.

Ko'pdir aytajak so'zim,
O'gitlaringga zormen,
Yig'laysan deb do'stlarim
Ta'na qilar. Netay men?

Sovush bermaydi menga,
Yoqib ketganining olov.
Netay, yetmayman senga,
O'rtaga tashlangan g'ov.

Ishqqa maskan yuragim,
Topib ber, deb qistaydi.
Nima qilay, berahm –
Ruhim seni istaydi.

1945

NE BALOGA ETDING MUBTALO

O'tdi oylar g'am bilan oqib,
Dil topmadi zarra tasallo.
Firoqingda qoldim tutoqib,
Ne baloga etding mubtalo!

Ko'z ochgani qo'ymaydi alam,
Boshim qo'ysam kuydirar bolish.
Yupatolmas kitob va qalam,
Misralarim ko'tarar nolish.

Nahot shuncha ma'sum, shunday pok
Sevishmoqda alam bor shuncha?
Bardosh bermas iroda, idrok,
Tamoman lol aql, tushuncha.

Tog'day bor deb bilgan yuragim
Qush boshicha qolmadi chog'i?
G'amni yengarman degan sarim
Yana ortar alami, dog'i.

Erib ketmagandim sevgingdan,
Bo'lmaslik-chun baxtingdan judo,
Birga qolish uchun sen bilan
Kuyaman-u, bo'lmayman ado.

1945

KELINCHAK

Bukun to'ying kuni, sevging shodligi
Go'yo yosh qalbingga sig'mayin qoldi.
Baxtiyor hayotning ilk tantanasi
Sen o'sgan qishloqni quvonchga soldi.

Senga to'y sovg'asi, gullar ko'tarib,
Gurros-gurros kelar do'sting, tengquring,
Yangi uyda to'lib kampirlar mammun
Yangi baxt, odatdan qizitar gurung.

Daraxt orqasidan suqli termulib,
Boshingdan socharkan oy oppoq chechak.
Sevganing yonida, do'stlar ichida
Seni baxtli, go'zal ko'rdim, kelinchak!

Ustingda xushbichim oq — to'y libosi.
Soching halqasi-la o'ynaydi shamol.
To'yga kelganlarning ko'zлari senda
Garchand shu makonda topgansan kamol.

Kuyov tikilganda baxtiyor, maftun,
G'uncha lablaringga chiqar nim kulgu.
Sen va'da etding baxt-u saodat,
Unda aks etadi misoli ko'zgu.

Elektr marjoni nuri qo'ynida,
Chimildiq to'smagan surating zarif.
O, yoshlik, porloqsan, go'zalsan, gulsan
Sening ta'rifingga qalamim zaif.

Yangi davr yaratgan yor-yor avjida,
Qadahda jimirlar lola rang sharob,

Tovusday xiromon suzar raqqosa,
Yallaga jo'r bo'lgan tanbur-u rubob.

Umrda bir bo'lur bunday tantana,
Borlig'ing ko'z bo'lib boqasan unga.
Bilaman, istaysan o'tmasa bu dam,
Xotima bo'lmasa shu ajib tunga.

Erka qiz, bu ajib tun orqasida,
Zarrin sahifali sahar kutadi.
Hayot kitobining ilk varag'ini
Toleing keng ochib senga tutadi.

Hali muhabbatning bahori oldda,
Oldinda yosh hayot, rang-barang fasl.
Umringiz xushchaqchaq, inoq bo'ladi,
Bunga yonib turgan ko'zlarining kafil.

Shu ko'zlar yulduzday abadiy kulsin,
Bahor yo'llaringga to'shasin chechak.
Shu yoshlik, shu chiroy, umring bahori,
Sarg'ayish bilmasin, suluv kelinchak.

1946

HIJRON

Kuz oqshomi edi. Bulutli oqshom,
Oydan to'kilmasdi kumush kabi nur.
Azamat teraklar safi xayolchan
Ko'kka cho'zgan edi boshini mag'rur.

Barglari sarg'aygan gullar, daraxtlar
Oqshom tumanida sokin boqqan chog',

Yorim, sevar yorim, jo'nadi jangga,
Mening yuragimga tushdi hijron-dog'.

Men sevgan dildorning sevgan yurti bor!
Ishq doim erk uchun hijronga rozi.
Bu hijron mangumas, visoli ham bor —
Qahraton qishlarning bo'lganday yozi.

1942

OLTIN KUZ

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan,
Atlas tabiatli go'zal chog'ingni.
Daraxtlar libosi rango-rang, gulgun,
Ko'zni erkalagan chaman bog'ingni.

Sevaman, yerlarga rangdor yaproqlar,
Yumshoq va rang-barang gilam to'shasa,
Gul terganday terib barg qizaloqlar,
Qushlarday gurpanglab yayrab o'ynasa.

Dalada paxtalar kumushi porlab,
Momiq yuzlarini quyoshga tutsa.
Terimchi chechanlar etaklab, qoplab
Tog'day xirmonlarga keltirib to'ksa —

Men behad sevaman! Yengim shimarib,
Qizlar orqasidan yuraman men ham.
Keng vodiy qo'ynida ko'ksim qabarib,
Yayrayman, nash'aga to'laman bu dam.

Simob to'lqinlari tutib osmonni,
Muttasil yomg'irlar zeriktirsa ham.
Kumush buloqlarning suvlari sokin,
Qushlar inlariga kirib olsa ham,

Men g'amgin boqmayman,
ko'nglimda bahor,
Oltin yaproqlarga qarab tolmayman.
Yasan kelinchakday har bir daraxtni
Sevaman! Nigohim uza olmayman.

Bulut chodirini yirtib, mo'ralab,
Chiqsa quyosh, ko'kka bo'laman maftun.
Sevaman nurlarda pati yaltirab,
Oppoq kabutarlar qilsalar o'yin.

To'zoni yuvilgan barglar shamolda,
Rangini ko'z-ko'zlab qilganda huzur,
Hozir tingen yomg'ir tomchilarida,
Oltin yaproqlarda yonib toza nur —

Gavhar marjon kabi yaltirab tursa,
Meni ham o'raydi she'riy hayajon!
Quyoshni qarshilab chiqib ayvonga,
Nurlarga ko'milib yuraman shodon.

Sevaman oltin kuz, sevaman jondan!
Tovusday bezangan daraxt, bog'larni!
Yomg'irli oqshoming, quyoshli tonging,
Xayolqa cho'mganim go'zal onlarni!

1943

FARZAND

Nega sevmay, erkalab o'pmay,
Nechun demay uni hayotim?
Nega demay ko'zimning nuri,
So'zlaganda qandim, novvotim?

Shirin ekan farzand, u bilan
Oilaga kirar ekan jon.
Ko'zi ko'zga tushishi bilan
Mehri balqir ekan bepoyon.

Iqbol bo'lib ko'zing oldida,
Kundan kunga toparkan kamol,
Ne baxt, toza hayot bog'ingda
O'ssa toza, bebaho nihol.

U bor yerda qayg'u va hasrat
Hayotingga begona ekan.
Qani ayting, farzanddan qimmat
Bu dunyoda nima bor ekan?

O... farzandim, ko'zim nurisan,
Menga senday bo'la olur kim?
Sen hayotim, seni ko'rarkan,
Dilda behad jo'shadi mehrim.

Qaro ko'zlaringga qarayman,
Unda borliq namoyon.
Mening baxtim yorqin, betuman
Jilvalanib ko'rinar ayon.

Shirin so'zing, cheksiz mehring bor,
Qilik'ingda bir olam orom.

Sen bilan dil chiroyli gulzor,
Qo'shig'imga tunganmas ilhom.

Sen o's – sog'lom, beqayg'u, erkam,
Muhabbatim boshingga soya,
Men baxtiyor alla aytayin,
Qo'shiqlarim ko'p, benihoya.

Ko'zyosh nima, sen bilma zinhor,
Senga porloq tilayman iqbol,
Bu dunyoda na yaxshiki bor
Senga, qo'zim, senga bo'lzin, ol!

1943

HAYOT JILOSI

Yana yilday uzun bo'ldi tun,
Ko'zlarimga kelmadi uyqu.
Turli xayol chulg'ab o'yimni,
O'tday yoqdi boshimni parquv.

To'shagimda kuchsiz va horg'in
To'nib yotdim xayolga botib,
Devordagi gardish palakka
Shula tushdi quyunday oqib.

So'ylamadi yupanchli so'zlar,
Odatdag'i do'stlar singari.
Ammo yengil tortib nafasim,
Nazarimda g'am ketdi nari.

Uyga kirgan hayotbaxsh jilo,
Tishga boq, deb qilganday xitob.

Ko'tarilib darchadan boqdim,
Og'ushiga oldi oftob.

Qaradim-u, ko'zimni ortiq
Uzolmadim tirik hayotdan.
Sozim, qalbim, qo'shig'im bilan
Maftun bo'ldim men qayta, boshdan.

Ana, qushlar qanotida nur,
Nur-la o'ynar bargdagi shabnam.
Shu giyohday, ey aziz oftob,
Intilaman sen tomon men ham.

1946

ORIK GULLAGANDA

«Terazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...»
Gulni ko'rib ishqparast qalbim,
Ming aytilgan darddan kuyladi.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Hijron qo'shar ekan harorat.
O'lgudayin mushtoq bo'libman —
Visolingga, yo'q chog'i toqat.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Kirib keldim shu tanish uyga.
Biz bir choqlar yashagan uyda
Tunab qoldim xayol-la birga.

Buncha issiq, buncha ham shinam
Yoshlik kechgan torgina shu joy.

Bunda yashar ajib onlardan,
Ishq-la o'tgan tunlardan chiroy.

Har burchagi elitar hushim,
Naqadarlik oshno, yaqin.
Xuddi tunda kamolga yetgan
Qo'shig'ingda chaqnagan chaqin.

Bunda hayot — ilhom onlari
Qalamingdan to'kilgan gavhar.
Gul bo'yini olganda shamol
Rashkka to'lib to'ngan u ko'zlar.

Sen tugatgach chanqoqlik bilan
O'qib maftun bo'lganim hayot.
«Qalay degan» bo'lib termulgan
Ko'zlarining otashi hayot.

Hali hayot, takror o'qirkan
Zavqqa to'lib yayragan ko'ksim.
Yuzingdagi ulug'vor, mayin,
Bir jahonga arzir tabassum.

Bari hayot, muhabbat kabi,
Hamma yerda ko'rinar izing.
Parrandalar nag'ma kuyida
Jaranglaydi tovushing, so'zing.

Meni o'rab oldi hayajon,
Yana ortdi sevgining kuchi.
Sharq qizarib, chiqmoqda quyosh,
Oltinlandi terakning uchi.

Sen kuylagan o'rik shu kecha
Burkandi oq — oppoq, chechakka.
Men qadrdon xotira bilan
Jo'nab ketdim uymga yakka.

1947

SOG'INGANDA

Qancha bo'ldi ko'rмаганинга,
Ey qalbimning dilbari shoir!
Qancha bo'ldi birga o'ltirib,
So'zlashmadik dillarga doir.

Dil-chi, dilim unutib bo'lmas
Ishq qo'shig'i yozilgan kitob.
Xayol xiyol chertib o'tdimi —
Topib ber deb qiladi xitob.

Ikkimizga ma'lum bir qudrat
Yillar o'ta senga tortadi.
Unutayin deyman-u, faqat
Dilda uning o'ti ortadi.

Ham tabiat, ham do'st, ham raqib,
Barchasini qoldirib dog'da,
Ko'rinsak-u, yana tirilsa
O'sha o'lgan bo'sa dudog'da.

Yuragimning shohi deb seni,
Mayli, bu gal o'zim tiz cho'ksam.
Huzuringda baxtdan tebranib,
Ishq va sog'inch yoshini to'ksam.

1950

Bu hayotning hamma toza, chiroyli dami,
 Aziz do'stim, mudom seni esga soladi.
 Ko'zlar amri, yurak erki, jo'shqin his bilan
 Kecha-kunduz jang qilmoqdan aqlim toladi.

Faqat dilga oshno bo'lgan ajoyib damlar,
 Tuyg'ularning zid xohishi berganda alam,
 Ko'kraklarni to'ldirganda orom va ozor
 Baxtsizmidik? Nahot unut bo'lar o'sha dam?

1954

SENSIZ

Mana bir umrni yashadim sensiz,
 Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
 Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
 Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.

Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
 Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga,
 Biroq azasida yig'layman qon-qon,
 To'yida yayrayman o'xshab ohuga.

Lekin qolganimda qalbim-la tanho,
 Tuyg'ular zoriga solganda quloq,
 O'zni zaif, chanqoq sezganda goho,
 Alamdan beraman javobsiz so'roq:
 Tirik ekan nega tashlab ketmading?

Mendan nafisroqning husniga oshiqa,
 Mendan yoniqrog'i tortmadi sani,
 Edi nigohingga bor jannat ochiq.

Seni majnun etib bir yer go'zali
Nega meni tashlab ketavermading?

Tirik ayrilishning dog'i og'irmish,
Xo'rlik kemirarmish umrni chaynab!
Bu — mudhish egovga berardim turish,
Ketsang ham menga jon tuyg'ungdan aynab.

Bilardim, qaydadir olasan nafas,
Murakkab bu dunyo sen-chun ham tirik.
Senga yot — noshudlik, tund ruhlik qafas,
Bugungi qadaming kechadan yirik,
Nega, nega meni tashlab ketmading?

Bilaman, rashk meni etardi halok,
Afzal ko'rganiningni qarg'ab o'tardim.
Izingdan yurmasdim soyaday g'amnok,
Lekin ishq haqqi-la mag'rur kutardim.

Hayotda men uchun qolarding tirik,
Qalaming mujdasin kutardim mushtoq...
Ma'yus taqdiringga yashab men sherik,
Mushkul bo'layotir shodlik yaratmoq.
Nega tirik ekan tashlab ketmading,
Tashlab ketmading-a, boshlab ketmading?!

1970

O'G'LIM, SIRA BO'L MAYDI URUSH

To'lisharmi o'lkada bahor,
Quyosh kezar osmon ko'ksida.
Qaldirg'ochlar qanotmi qoqar,
Undan soya labi ustida.

Mana, o'g'lim labi ustida
 Qaldirg'ochning mayin qanoti.
 O'spirinim toza ko'ksida,
 Kunda oshar yangi his toti.

Bo'yi oshib ketdi bo'yimdan,
 Bosa olar ko'ksiga boshim.
 Sevgim qurib bergen uyimda,
 O'sdi mening katta yo'ldoshim.

Yurak to'la shodlik, mehr, baxt,
 Uning ko'zlariga boqaman.
 Nigohiday tiniq va yorqin
 Orzu to'lqinida oqaman.

Orzulari qalbimga ziynat,
 Hayotidir ko'zim qorasi.
 O'kinaman, ba'zida faqat,
 Yonida yo'q, uning otasi.

Urush! Noming o'chsin jahonda,
 Hamon bitmas sen solgan alam.
 Sen tufayli ko'p xonadonda
 Ota nomli buyuk shodlik kam.

Yulding ota demak baxtini,
 Juda murg'ak go'daklarimdan.
 Yaxshi ham bor shunday Vatani,
 Dalda bo'ldi yuraklarimga.

Ota bo'lib soldim men yo'lga,
 Ona bo'lib mehrimga oldim.
 Mana, yurtga o'g'il o'stirgan
 Bir davlatmand boy bo'lib qoldim.

Qancha ishonch, umid baxsh etar,
Ham Vatanga, ham menga bu dil,
Qoya kabi yonimdan chiqib,
Suyan, — deydi, — kiftimga dadil.

Men onaman, mening yuragim
Farzandlarim quvonchiga kon.
Dil orziqar, ba'zan tilagim
Vahimalar o'ragan zamon.

Yo'q, urushning nomi ham o'chsin.
Mening o'g'lim kerak hayotga.
Istamayman, uning dudlari
Qo'nsin labi uzra qanotga.

Bas, bas, ezgu onalar qalbi,
Yashay olsin bexavf, baxt bilan,
Mehnatimiz, g'azab, sevgimiz
Tinchlik, deydi butun xalq bilan.

Ko'krak suti va mehnat bilan
Biz jahonga berganmiz turmush,
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O'g'lim, sira bo'lmaydi urush!

1954

SADOQAT

«O'zing aqlisan, sodiqsan, — deding, —
Tushunasan hamma narsaga.
Bo'z yerlarga men ketar bo'ldim.
Kuzatasan, jonim, ertaga».

Ishonching-la qildim iftixor,
 O'ynab-kulib seni uzatdim.
 Bo'z yer senga bo'lzin deb bahor,
 Hatto qalbim qo'shib kuzatdim.

O'yamas ekanman sen haqda avval,
 Mana sen ketding-u, bo'ldim xayolkash.
 Nega yur, demading bir og'iz aqal,
 Seni shunga koyiyman yakkash.

Mana, tong otadi har kun o'lkada,
 Yakunin topadi qancha yumushlar.
 Inson nafasiga mushtoq cho'llarga
 Hayot bo'lib kirishdi yoshlar.

Shu yo'ldan boradi mening yoshlik ham,
 O'sha yerdan tilaydi sharaf.
 Nari ketgan saring dil har dam
 Intilmoqda ko'proq sen taraf.

Men bilaman, u yer bo'z, sahro,
 Gul tergani ketgan emassan.
 Vatanimga ishqimni aslo
 Shunchaki bir havas demassan.

Sen borgan joy menga ham Vatan,
 Atalur u yoshlik vodiysi.
 Istaymanki, turib yonma-yon
 Ijod etsak ko'r kam ertasin.

Shonli bu avlodning izmiga kirib,
 Tark etmoqda cho'llar uyquni.
 Yerni tutgan quyosh shimirib,
 Pishgan bug'doylarning to'lqini.

Bug'doylarning mavjin tush ko'rib,
Uxlab yotgan yerlar chorlaydi.
Men boraman, istiqbolimda,
Yangi baxt-u sevgi porlaydi.

1956

BINAFSHA

Qahratonda yerga to'shalganda qor,
Mening ko'nglim tusab qolar binafsha.
Dilim tag-tagidan erka bir viqor,
O'rар chirmoviqday xushbo'y bir nash'a.

Eng xushro'y, ey ko'r kam gullarning atrin
Na bo'y, na husniga etolmam qiyos,
Beqiyosdir hushni yelitgan bahri,
Tun yostiqda so'lgan binafshaga xos.

Shu huzurni qo'msab, quturgan qishda
Dumbul bahorlarni nigohim izlar...
Goh-goh butunimiz emas, o'tmishtdan
Issiq nafaslarni izlaymiz bizlar.

Xayol chamanida bo'y cho'zib o'tlar,
Cho'lда el va nurda lolalar balqar.
Ko'klam sharpasidan sinib sukutlar,
Tarnovdan ariqdan suv bo'lib oqar.

Nihoyat, ma'sumam — jajji binafsha
Safsarrang gulxanin sochar iymanib,
O'ngir, ariq buyin tutadi nash'a,
U buyuk borliqqa boqar jilmayib.

«Salom!» — deyman xayol binafshasiga, —
Sensiz ko'ngil bog'im qolardi g'arib!
...Hech mast bo'lganmisiz sof nash'asiga,
Boshin xiyol egib tursa jilmayib?..

1983

TINGLA, BULBUL

Bulbul sayrar, irmoq kuylar, o'ynar yel,
Hamma yoqqa nur to'lganga o'xshaydi.
Shirin kuyga to'lib ketdi ma'sum dil,
Sevgi unga yor bo'lganga o'xshaydi.

— To'xta, bulbul, men kuylayin, jon bulbul,
Sen tinglagin qalbimdag'i torimni.
Bahor desam, rashk qilmasin chaman gul,
Yuragimga kirib olgan yorimni.

Men yor sevdim, ishq o'radi o'yimni,
Erka dilning to'lqiniga qulq sol.
Sen biyronsan, lekin mening kuyimni
Ko'rki bo'lgan sadoqatdan saboq ol...

1951

SAHAR MEN BILAN...

Kundan-kun saharga ortar sog'inchim,
Nahot hayot shomin yaqinligi bu?
Salqin oromida yo'qolar tinchim,
Demak, shafaq men-chun yolqinligi bu!

Nahot umrimdag'i sahargi zavqlar
Tark etib izlayman sahardan najot?

Birday emasmidi yil, fasl, vaqtlar,
Nedir o'tib, nedir kelmaydi, nahot?

Sahar bu — yoshlikday borlig'i orzu,
Sahar o'qilmagan g'aroyib kitob.
Nahot umr olib qo'lga tarozu
Mendan kutar halol, aniq sarhisob?

To'xta!
Nechun yillar pallasi vazmin,
Umrin emasmidi hayotdan tuhfa?
Sarhisob chog'da ham o'zimda izin,
Posangisin rostlash paytimas, to'xta!

Kun faqat saharmas, kunduz, shomi bor,
Kech pishar mevalar ozmi tuproqda?
To'xta!
Tarozuga qo'yardek kuy bor,
Hali sahar siyoq yashnoq dil-bog'da.

Men axir sahar chog' tavallud topdim,
Onam ko'ksi, aziz yurtim ham sahar.
She'rga dil daftarin saharlar ochdim,
Eslayman:
Topgandi sevgi qo'ynidan
Meni tog'dan og'ir hijron ham sahar.

Bugun shom ustidan yal-yal kulajak
To umr boricha sahar men bilan.
Har kun menga sahar tuhfa etajak
Xalqim yuragiga safar men bilan.

SENI KUYLAYMAN, HAYOT!

Yashash aziz hissi tanda kezganda,
 Umr ko'pi kechib, armon dilni ezganda,
 Hatto o'zni xasta, zaif sezganda,
 Og'ir, benaf o'ydan yurak bezganda
 Seni kuylayman, hayot!

Har sahfang o'qilgich yangi bir kitob,
 O'tmishmi, ertasi tug'ilar har bob —
 Yashash va yozishga qilganda xitob,
 Sukut xijolatin yengmoq azmida
 Seni kuylayman, hayot!

Har fasl bir ajib tarovat to'ksa,
 To'kin kuz hosili shoxlarni buksa,
 Yangi rizq-yomg'ir, qor tog'larga cho'ksa,
 Bahor gulin ko'zga surtmoq azmida
 Seni kuylayman, hayot!

Sen o'zing kun sari o'sgan farzandim,
 Goh chaqnoq shodligim, goh achchiq zardim.
 Mehnat zafarlarim, beshifo dardim,
 Do'stdan mehr — maktub kutmoq azmida
 Seni kuylayman, hayot!

Sening o'zing shirin va tansiq tuhfa,
 Har umr baxt shonin yo'g'urar supra,
 Yo'g'urmoq ming taxlit va ming bir turfa;
 Bu maktabni qayta o'tmoq azmida
 Seni kuylayman, hayot!

Kuylayman, kuylamoq kun sari mushkul,
Men senman, sen mening borligim butkul.
Yelkamga yuk ortib, qo'limdan tutgil,
Bu baxtni nazmga to'kmoq azmida
Seni kuylayman, hayot!

1970

RASHK

O'ltiribman daryo bo'yida,
Yuragimda rashk bilan havas.
Daryo oqib borar... qo'ynida
Quyosh nuri, bahorgi nafas.

Yo'q, rashkimni qo'zg'atgan bumas!

Chunki, men ham xalq dengizida
Bahor nafasin ham sezaman.
Daryo oqib yotar izida,
Men istasam jahon kezaman.

Lim-lim suvdan uzolmayman ko'z,
To'qinlarda tirik hayajon.
Quyosh million va million yulduz
Bo'lib unga sochilgan marjon...

Tepasida uchar gala qush,
Arg'imchog'in daryoga solib.
Tog' yellari urib o'tar to'sh,
Salqinidan shaharga olib.

Yo'q, rashkimni qo'zg'atgan bumas!

Ishq va hijron olovlaridan
Omon chiqqan qaynoq dilim bor.
Men quyoshli el farzandiman,
Baxtlimanki, yoniq nafas yor.

Yo'q, rashkimni qo'zg'atgan bumas!

Nigoh ketar to'lqinlar bilan,
Sohillarga suq bilan qarab.
Qo'lida ketmon, bir chol daryodan
Bog'iga suv ochadi yayrab.

Kumush sochday yoyilar suv ham,
Quyiladi tuproq qo'yniga.
Mening qalbim rashk bo'lib shu dam
Osiladi suvning bo'yiga.

Hovuch-hovuch ichadi qizcha,
Serob bo'lib ketar tashna lab.
She'rim o'qib bir hovuch suvcha
Babra olarmikan biron qalb? —

Shu rashk meni qiynar bu nafas!..

1958

KIMNI KUTASAN

Ko'zing muncha yo'lida intizor,
Ey, bahordan barkamol husn.
Iztirobining dilimga ozor —
Ishq hijronin bilganim uchun.

Sen kutasan kimni, qayerdan,
Kelaman deb, qildimi va'da?
Sen kutasan, gulning bargidan
Nozik diling mustahkam ahdda.

Ishqli qalbning qoniday labing,
Lovillaydi ma'sum otashda.
Uchqun sochar ohu ko'zlarining
Yashirmoqchi bo'lganining g'ashda.

Ey, qalbiga riyobegona,
Tabiatning bokira qizi.
Go'zal otashda yona-yona,
Ayt, kutganining nonko'r kim o'zi?

So'rayman, uzr ey malak,
Beburd nomni olma sen tilga...
Bahor ko'kin bezab kamalak,
Birdan shunday sovrilar yerga.

Dilga orom yorqin yulduzing
Qayerdadir chaqnab turibdi,
Sevgi, vafo axtarib izing
Chin baxt o'zi sen deb yuribdi.

1961

DARAXT

Bir daraxt turardi yo'l chekkasida,
Shamol urar edi uni muttasil.
Avval ko'k, so'ng za'far-xazon tusida,
Ko'rkin yo'qotdi... hamon urar yel.

Qurg'adi, bukchaydi kurashda tanho,
Zilol qonlaridan qolmadi zarra.
Shamol, shamol savab qo'ymadidi ammo
Ildiz-la yiqildi oxir bir zarbdan.

Endi yel bo'shliqda kezar darbadar,
Tanho qurbanining qaqshashin izlab...
Bilaman, daraxtday qulasam agar
Mening hayot bog'im qolmas huvillab.

1963

* * *

Umr o'tmaqda...

O'kinchdan yo'q iz,
Qalb mehnatga, qalamga chanqoq.
Goh baxtsizlik yutar baxtimiz,
Lekin hayot dilbardir har choq.

Yayratganda yayradim xushbaxt,
Singanim yo'q chalsa-da bo'ron.
Garchand men bir kam hosil daraxt
Ne'matimda tirikdir his, jon.

Yetsa deya kuyim do'st, elga
Yonar izlash o'tida qalam.
Zahmatkashni olganda tilga,
Eslasangiz zora meni ham!

1963

EMISH...

Emish: shuhrat o'rab kemtik qismatim,
Ko'zlardan uzoqda sirqirab oqar.
Qalbda qo'rg'oshinday yotib hasratim,
Ko'zlarim jahonga baxtiyor boqar.

Emish: hayot menga ayol baxtidan
To'liq kosasini ko'rmapti loyiq.
Lekin qalbim to'kkан she'r shuhratidan
Baxtli ayol dermish meni xaloyiq...

Qalbim qolgan edi bu yerda,
Sizning dilingiz-la jo'nab ketgandim.
Ajdodim, avlodim qiblasi — elda
Qalbimni sog'inib she'rlar bitgandim,

* * *

Men dengizning labida turdim,
Dengiz bo'lib chayqaldi yurak.
Men dengizning labida turdim,
Unut o'zim, unut tevarak.

Quyosh sochib qizil chechagin,
Yonib yotar to'lqinlar lov-lov...
Lekin yig'ganini shafaq etagin,
Nazarimda, ko'rmadi birov...

Halgina ipakday him-him
Alvon to'lqin eshilgan edi...
Hijron azmi — gulgun ko'ylagim
Xuddi shunday eshilgan edi...

Olov to'lqin tunning ichida,
Qolib ma'yus chayqalar dengiz...
Musibatning zang ilgichida
Gulgun ko'ylak osig'liq hanuz...

IQRORGA VAQT YETDI

Ijod dengizimning ma'sud jo'shqinin
Qo'msab, dil bisotin ochayotirman.
Oldda bekatlarning tuyib yo'qligin,
Notugal mashqlarim sochayotirman.

O'ylasam, hayotga o'zni bag'ishlab,
Burchlar savalabdi misoli jala.
Mahram qalamimni tishimda tishlab,
Yashabman, ishlarim goh but, goh chala!

Gohi it qalamim bo'lmas, o'tkirlab,
Stolimda qog'oz yotar za'faron...
Shu tuyg'u savalab, ko'ksimni tirnab,
Gohi shom, goh sahar o'ylarim giryon.

Hordiq bilmas tolgan dilni parchalab
Hislar mendan kutar otashday so'zlar.
Qalbimning tubida qoldimi yaxlab,
Men ko'r baxsh etmagan nomsiz yulduzlar...

Qancha tavallolar qilmay taqdirdan,
Sochilgan umrimdan bermas bir yilin.
Lek afsus, nadomat achchiq zahridan
Kashf etib bo'lmaydi ro'shnolik ilmin.

Silqib-silqib qancha suv bermasin, yer,
Quduq hech jahonda to'lib tosharmi?
Qalbim, tafakkurim sinchkovlab qazir —
Qalamimni qaynoq qo'lim tutarmi?

Mulki lak-lak dilni etmakman ayon,
Bilasiz, yashadim riyodan olis,
She'riyat kechirsin, kechirsin she'rxon,
Zamona zug'midan bo'l madim xolis.

Goh tovshim yetmasa sanamang sukut,
Shoyat tark etmasa diydalarni nur,
She'riyat san'atga bo'l maydi unut,
Bojliman elim-u yurtga bir umr.

Zavqim, hayda mendan uzlatni yiroq,
Yemirildi gumrohlik yillar maqoli.
Ochunda, har dilda parpirar chiroq,
Istiqlol nuridan hayot safoli...

Ajinlar iz solgan keng peshonamni
Istiqlol hayotbaxsh qo'li silasin,
Qataq'on yillari yutgan jigarlar
Dog'ini tortmoqqa toqat tilasin!

Yillar,

Nodir onlar,

Sevgi,

Hijronim

Dilimni zamzamlab ketmagan uchib...
Bor bo'lsa beshmi, o'n muxlis she'rxonim,
Yozmoq — baxt qalamim uchini o'pib.

1994

BU OQSHOM...

Bu oqshom porillar dil nuringizda,
 Diydar baxti nasib yana Siz bilan.
 Turibman, azizlar, huzuringizda
 Hamon o'tlig' ko'ngil, yorug' yuz bilan.

Hamon mulkimdag'i siym-u zarim — she'r.
 Sochimda, chehramda yillardan nishon,
 Sajdagohim tanho Vatan,
 Ona Yer,
 Orzularim karvon, sarbonim — ishonch.

Hamon ota-onam, ikki jahonim
 Aziz yodi aro shikasta, butman.
 Ishqim — alangadir, qordir hijronim
 Sakson yil lovullab so'nmagan o'tman.

Ikkita ko'zimga ikki qorachiq —
 Munisim Hulkarim, alpim Omonim.
 Shirin nabiralar hayotdan tortiq
 Har biri joniga payvanddir jonim.

Nomlari, yodlari payg'ambar monand
 Hazrat ustozlarim — teran ildizlar,
 Men undan jon olib ko'kargan daraxt,
 Mevasi — qalbimdan otilgan so'zlar.

Hikmatlar bag'rida dur, marvaridim
 Ajdodlarim menga iftixor, g'urur,
 Shu mavjlardan tomgan nuqra umidim
 Shoira qizlarim baxsh etgan surur.

Bu nazm bog'iga kirolmas xazon,
Bizni mahf etolmas zavol lashkari,
Men ketsam mung'aymas umrim hech qachon,
Bu bog'lar — bir bog'lar bo'ladi hali...

Hamon e'tiqodim — haqiqat, haqdir,
So'zlayman, yuzimni tutib Ka'baga,
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o'tadi ruhim abadga.

E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur
Asli Siz oftobim, men ziyo siman.
Tonglaringiz kulsin doriloman, hur.
Baxtim shul — o'zbekning Zulfiyasiman.

1995

KECHIR MENI...

Niholginga qo'lda dumbulgina soz,
Ishq koshonasi bildim kirganim uyni.
Qo'shig'im pardasi hozircha sayoz,
Sevgi baxti bosib ketgandi kuyni.

Serqudrat, serjarang kuchga topinib,
Men kuylay boshladim otashin ishqidan,
Mastlikdan qolardim ojiz, talpinib
Hisning durlarini ipga tizishdan.

Tuyg'umni uchmoqqa qanot deb bildim,
Poyingga she'r larim tashladim dildek...
Hijronning, faryodning dudlarin to'kdim,
Yuragim so'kildi bo'lak va bo'lak.

Yig'lab kelib, yig'lab ketar odamzod,
 Libosidan qora she'rlarni yozdim,
 Shak keltirganim bilmay, bir devonavor,
 Oz bo'lsa aqldan va dindan ozdim.

Bir mushtdek yurakka bo'laverdi jo
 Ham sevgi, ham hijron, sabr-u iroda.
 Yillar o'tgan sari zahri ziyoda
 Unutganlar-chun ham bo'ldim men fido.

O'sha koshonamiz quchoqlaridan
 Hamma polaponlar boshladi parvoz.
 Baland uchib, osmon qirg'oqlaridan
 Jahon bo'ylab ketdi har birida soz.

O'zni senga berib yashadim uzoq,
 Nomingga munosib farzandlar o'sdi,
 Menga shamloni ham ko'rmayin ravo,
 O'shalar ajallar yo'lini to'sdi.

Muk tushib tilimiz sajdagogiga
 Har bir kalimaga izladim sayqal,
 Shuncha yillar qalam dehqoni bo'lib
 Kechir, qo'yolmadim she'rimdan haykal.

TUNGI GULXANLAR...

Biz kunduz oshig'i ekanmiz asli,
 Tunni sevamiz deb yozamiz qo'shiq.
 Tog'lar etagida bo'ldim yoz fasli,
 Har salqin parchasi ming sirga to'liq.

Men sir-u sehrni bilmas ojiza,
Jodugar domiga tushganday bo'ldim.
Tog'liqning chaqnagan yulduzi ora
Yoniqman degan men, biryo'la so'ndim...

To'lin oy samoning quluni misol
Sallona-sallona bulut-la o'ynar,
Etakda cho'ponlar qurgani gulxan
Tillari yellar-la chirmashib o'rlar.

Yelning mayin kuyin qoldimmi ilg'ab,
Toshlarning bag'rida tug'ilar chashma...
... Qalbimni injitib dard, orzu yig'lab,
Ajib og'riq hislar qildi karashma...

LAHZALAR

Oqshom edi, bir og'ush oqshom,
Ham bildirab, ham sirqirar dil.
Ko'zlar liq mung, shodlik to'la jom,
Sipqorish ham ojiz,
to'kmoq ham mushkul.

Har yurakda turfa rang nido,
Har bir so'zning o'z ezgu siri...
Shuncha kuchli, mag'rurlar ham goh,
Bo'lib qolar onlar asiri...

Sipqorilmas jom ko'p hayotda,
Eng ezgusi ko'zlarda yashar.

To'kilsaydi u hamma zotda,
Duv so'kilib ketardi bashar...

Hamma qonunlarning ustidan chizib,
Menga qayta umr etsalar in'om,
Axtarib topardim har bosgan izim.
Bekor o'tganiga baxsh etardim jon –
Har biriga tutar edim bir she'rim.

Mudom kayfiyatga tobe'dir inson,
Xastasan, ta'bingga kiradi tundlik.
Go'yo ishonch sinib, zarb yeysi imon,
Umrining o'zi ham qoldi bir kunlik...

Tungi sukut tarqalib,
Tong tovushga to'lib otadi,
Shabbodaga yaprog'in artib,
Daraxt kunga quloch ochadi.

Keksa ona tabiat turar,
Tarjimonsiz kiradi ruhga.
Har bir jonga uyg'onish berar,
Madad bo'lar hatto majruhga...

Meni dard yengdimi, yo bitdimi kuch,
Vujud so'kilganday, chok-chokdan go'yo,
Tinglayman, o'qiymen, lekin dil bo'm-bo'sh,
Kup-kunduz ko'rganim o'ngimmi, ro'yo?

Qayda parpiraydi g'ayrat, shijoat,
Jo'shqin hayotga jo'r bir juft qanotim?

Iroda, ko'zing och, berma ijozat,
Yastanib o'tmasin qolmish hayotim...

Quyoshni yashashni, zilzilani ham
Sevib, qo'rqib yengil yashagum kelar,
Axtar yerdan, ko'kdan ilhomni ildam,
Balki men kirmagan yo'llarda yelar?

Inson yuragini topishga qodir
Aqlim, ko'zim toldi bir soz she'rsiz...
... Umrinda yuz bersin mo'jiza sodir,
She'r ber, kuch ber menga,
qolmay shodliksiz...

ILTIVO

Dard sahrosin o'ng-u so'liga
Imdod kutib sarbondir nigoh.
Bugun bunda parvona bo'lgan
Emish mumtoz hazrati jarroh.

Tangri bergen chipqonni yormoq
Bandasiga emasdир ravo.
Ko'rpasida burch ekan pishmoq,
Xo'p qovrilib bo'lganman ado.

Ne-ne nashtarlarga chidam bergenman,
Goho zako tig'i ham larza.

Bo'ronida xo'b sovrilganman,
O'zim o'lib, o'zim tutganman aza.

Hajr chipqonining ko'zin ochmoqqa
Vojib olmoq tangridan rizo,
O'zi yarlaqasa tongla uyoqda
Nur bo'lib yog'armish har nohaq jazo.

Begunoh gunohga botganlar ozmi,
Taqdırı jafoga solgan qiyanoqlar.
Safosi, jafosi, vafosi bilan
Zindonga tashlangan qalbi qaynoqlar.

Og'riq ko'kraklarda quriganda sut
Tirik bevalarning yetim farzandi
Emdilar sut emas, zaharni qult-qult,
Qatag'on yillarning dardi-yu zardin.

Tarixdan qadrli, boqiy tuyg'ular,
Mahbuslar tanida qolib ketgan kuch,
Hali hamon kezar, bilmay uyqular
Qurbanlar ruhida uyg'oq qolgan o'ch.

Men haq mehrobining poyiga cho'kib,
To'kib soldim tavollolarim.
Bir kun yig'lab qolar hammadan ham ko'p
Yetimlikka uvol sho'rlik she'rclarim...

Izlariga qilaman ta'zim,
Qaytaringlar kelgan yo'liga.
... Bu yog'iga toparman to'zim,
Berniang meni jarroh qo'liga.

1995

XAYR ENDI...

1

Xayr endi, vidoga chog' yetdi muddat,
Nazdimda qolmadi oldinda yo'llar.
Qolgani yashindek shoshqin, tez sur'at,
Muallaq qotadi uzatiq qo'llar...

Orzular bo'lmasin oftobday yorqin,
Gulbargdan chiralgan kabi uzilur.
Yashash qancha shirin bo'lmasin, lekin
Yumulish istamay ko'zlar suzilur.

Na sevgi, na nafrat, na quvonch, azob...
Ne dod, keksa ajal abad ogohda.
Yukli tevasimon tongla chorrohda
Gangib qolsam, egam, sadqa et najot...

2

Xayr endi, tabiat, to'rt dunyo husn,
Qulluq, uzoq yillar yashadik inoq.
Qishingda oq ko'rking sehrlab hissim,
Saratoning tuyg'um yoqdi qaynoqroq...

Sening o'zing tanho mumtoz bir kitob,
Raso va noraso darsing o'qidim.
Bu tun borlig'im-la quchdim-u bob-bob,
Og'riqdan tavallud she'rlar to'qidim...

Bandaman, ey tangrim, kashfi tabiat,
Axir bir kun so'nar ko'zlarimda nur.
Kalimaga zaif qolganda qudrat,
Senga so'nggi sajdam — umrim to'kilur...

MUNDARIJA

Hamid Olimjon

| | |
|---|----|
| O'rik gullaganda..... | 3 |
| Eng gullagan yoshlik chog'imda..... | 4 |
| Bolalik..... | 5 |
| Siyob..... | 8 |
| Baxtlar vodiysi..... | 13 |
| Xayrlashuv..... | 20 |
| Daryo kechasi..... | 21 |
| Kuychingin xayoli..... | 23 |
| O'lka..... | 26 |
| Daryo tiniq, osmon beg'ubor..... | 27 |
| «Har yurakning bir bahori bor...» | 28 |
| Ofeliyaning o'limi..... | 28 |
| Janub kechasida..... | 31 |
| Xayoling-la o'tadi tunlar..... | 32 |
| Chimyon esdaliklari..... | 33 |
| Holbuki tun..... | 36 |
| Xayolimda bo'lding uzun kun..... | 37 |
| Ishim bordir o'sha ohuda..... | 38 |
| Qora dengiz bo'yida..... | 40 |

Zulfiya

| | |
|-------------|----|
| Bahor..... | 41 |
| Kutish..... | 42 |

| | |
|--|----|
| Xayollar..... | 44 |
| Vatan tongi..... | 46 |
| Mening tongim..... | 47 |
| Muhabbat tongi kulganda..... | 48 |
| Bahor keldi seni so'roqlab..... | 50 |
| Sening maftuning..... | 53 |
| Soy kechasi..... | 54 |
| Yulduz..... | 54 |
| Kechir, qoldim g'aflatda..... | 55 |
| Tun..... | 55 |
| «Deydilarki, seni ko'rganda...» | 57 |
| Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?..... | 57 |
| Sen qaydasan, yuragim..... | 58 |
| Ne baloga etding mubtalo..... | 59 |
| Kelinchak..... | 60 |
| Hijron..... | 61 |
| Oltin kuz..... | 62 |
| Farzand..... | 64 |
| Hayot jilosи..... | 65 |
| O'rik gullaganda..... | 66 |
| Sog'inganda..... | 68 |
| «Bu hayotning hamma toza, chiroqli dami,...» | 69 |
| Sensiz..... | 69 |
| O'g'lim, sira bo'lmaydi urush..... | 70 |
| Sadoqat..... | 72 |
| Binafsha..... | 74 |
| Tingla, bulbul..... | 75 |
| Sahar men bilan..... | 75 |
| Seni kuylayman, hayot!..... | 77 |

| | |
|--|----|
| Rashk..... | 78 |
| Kimni kutasan..... | 79 |
| Daraxt..... | 80 |
| «Umr o'tmaqda... O'kinchdan yo'q iz, ...»..... | 81 |
| Emish..... | 82 |
| «Men dengizning labida turdim...»..... | 82 |
| Iqrorga vaqt yetdi..... | 83 |
| Bu oqshom..... | 85 |
| Kechir meni..... | 86 |
| Tungi gulxanlar..... | 87 |
| Lahzalar..... | 88 |
| Iltilo..... | 90 |
| Xayr endi..... | 92 |



HAMID OLIMJON



ZULFIYA

IKKI QALB TUG'YONI

She'rlar



Muharrirlar Davron Ulug'murodov,

Dilafro'z Choriyeva

Badiiy muharrir Nasiba Yoqubova

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahhih Dilafro'z Choriyeva

Matn teruvchi Gulchehra Azizova

Litsenziya taqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2018-yil 8-yanvarda ruxsat etildi. Bichimi 60×70^{1/16}. Ofset qog'ozi. Baltica garniturasi. Sharqli bosma tabog'i 5,58. Nasht tabog'i 3,7. Adadi 1000 (1 завод 300) nusxa. Shartnoma № 147 – 2017. Buyurtma № 1.


O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi texnik va dasturiy vositalar bazasida chop etildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.



*Cho'lpox nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN 978-9943-5086-1-3



9 789943 508613